



Qurilish ishlari hajmi

3560,5 mld. so'm

yirik pudrat tashkilotlari ulushi
2,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi
62,2 %

Norasmiy sektor ulushi
34,9 %

2019 yilning yanvar – oktabr oylarida QURILISH ISHLARI

2019 yilning yanvar – oktabr oylarida Samarqand viloyatida **3560,5** mld. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan **121,9** foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **103,2** mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,4** marttani tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi **2215,2** mld. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **133,4** foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi **1242,1** mld. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **101,4** foizni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yirik pudrat tashkilotlari

➤ **103,2**
mld. so'm

➡ **239,6 %**
o'sish sur'ati

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

➤ **2215,2**
mld. so'm

➡ **133,4 %**
o'sish sur'ati

Norasmiy sektorlar tomonidan

➤ **1242,1**
mld. so'm

➡ **101,4 %**
o'sish sur'ati



Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **2807,6** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **78,8 %** ni, o'sish sur'ati **2,2** martaga oshdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **273,8** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **0,8 %** ni, o'sish sur'ati **149,2 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **471,9** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **13,2 %** ni, o'sish sur'ati **3,4** martaga oshdi.



Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari





Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **3070,2** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **86,2** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **12,4** bandga kamaydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **490,3** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **13,8** foizini tashkil qildi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan, (%)	jami hajmga nisbatan ulushi, (%)
Viloyat bo'yicha	3560,5	121,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	1172,7	124,1	32,9
Kattaqo'rg'on sh.	80,6	125,4	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	274,7	126,5	7,7
Bulung'ur	103,0	124,6	2,9
Jomboy	184,4	126,5	5,2
Ishtixon	185,1	121,4	5,2
Kattaqo'rg'on	134,9	120,0	3,8
Qo'shrabot	107,5	121,3	3,0
Narpay	137,8	116,5	3,9
Nurobod	80,8	129,7	2,3
Payariq	215,7	117,8	6,1
Pastdarg'om	216,4	114,2	6,1
Paxtachi	127,2	117,0	3,6
Samarqand	186,0	133,0	5,2
Tayloq	156,7	113,4	4,4
Urgut	197,0	113,9	5,4



Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Jumladan, Samarqand shahrida – **1172,7** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **274,7** mlrd. so'm, Pastdarg'om tumanida – **216,4** mlrd. so'm, Payariq tumanida – **215,7** mlrd. so'm hamda Urgut tumanida – **197,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi. Jumladan, Nurobod tumanida – **129,7 %**, Samarqand tumanida – **133,0 %**, Jomboy tumanida – **126,5 %**, Oqdaryo tumanida – **126,5 %** va Kattaqo'rg'on shahrida – **125,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

(jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

I.Raxmatov

Aloqa telefoni:

(66) 235-60-82